

## PEYAMI SAFONING “ISTANBUL HIKOYALARI” ASARIDA MAKON VA ZAMON TAHLILBHGI

*Zoxidov Boxodir*

*TDSHU 2- kurs magistranti, Toshkent, O‘zbekiston. Tel: +998977203068;*

*Email: tartar.pro@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqola Peyami Safoning “Istanbul hikoyalari” asaridagi makon tahliliga bag‘ishlangan. Bunda tadqiqot obyekti sifatida Peyami Safoning “Istanbul hikoyalari” asaridagi hikoyalarda makon qay holatda berilganligi xizmat qiladi.*

**Kalit so‘zlari:** Peyami Safo, hikoya tahlili, makon tushunchasi, badiiy makon,

**Kirish.** Hikoyada makon va vaqt har qanday badiiy asarning, shu jumladan musiqa, adabiyot, teatr va boshqalarning ajralmas mulki hisoblanadi. Adabiy xronotoplar, avvalo, syujet ahamiyatiga ega, ular muallif tomonidan tasvirlangan asosiy voqealarning tashkiliy markazlari. Shuningdek, xronotoplarning tasviriy ahamiyati shubhasiz, chunki ulardagi syujet voqealari konkretlashtirilgan va vaqt, makon hissiyotiga xos xususiyat hisoblanadi. Janr va janr turlari xronotop bilan belgilanadi. Adabiyotdagi barcha vaqt-fazoviy ta’riflar bir-biridan ajralmas va hissiy jihatdan rang-barang.

**Maqsad va vazifalar:** Mazkur tadqiqot ishining maqsadi, Peyami Safoning “Istanbul Hikoyalari” asarida zamon va makon tushunchalarini qaysi uslubda qo‘llanganligini aniqlash. Ishning vazifalari quyidagilar:

- “Istanbul hikoyalari” asaridagi makon qo‘llanilishini aniqlash;
- “Istanbul hikoyalari” asaridagi zamon qo‘llanilishini aniqlash;

**Usullar:** Peyami Safoning “Istanbul Hikoyalari” asarida zamon va makon tushunchalarini qaysi uslubda qo‘llanganligini aniqlash uchun qiyoslash va tahlil qilish usulidan foydalanildi.

**Tadqiqot manbasi:** Peyami Safoning “Istanbul Hikoyalari” asari hisoblanadi.

**Tadqiqot obyekti:** Tadqiqotning obyekti sifatida Peyami Safoning “Istanbul Hikoyalari” asarida makon va zamon ishlatilishini aniqlash, qanday usullar bilan ishlatganiga ta’rif berish, makon va zamon asarning tub ma’nosiga qanchalik ta’sir etishini aniqlashdir.

**Natija va mulohazalar:** Peyami Safoning “Istanbul Hikoyalari” asari ijtimoiy, maishiy asar hisoblanadi. Asarimizda makon va zamon tahlili qilar ekanmiz aynan asardagi hikoyalar qayerda yuzaga kelayotgani muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki asarda shunaqa ko‘p makonga tegishli atoqli otlar berilgan. Bunga misol tariqasida asarning nomidan kelib chiqqan holda barcha hikoyalar Istanbulda yuzaga kelmoqda. Bundan tashqari faqatgina Istanbul emas. Bazi hikoyalarda Shom, Bog‘dod, Yunoniston va Bolqon davlatlari ham uchraydi. Va shuni ham ta’kitlash joizki asarda yer joy nomlarini tahlil qilinar ekan. Ko‘proq asarda uchraydigan joy nomlari aslida hikoyaning mazmunini ko‘rsatadi shu sababli asarni tahlil qilayotganda ko‘proq asarning joy nomlarini alohida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Misol tariqasida asarning “G‘aroyib oqshomning ertasi” nomli hikoyada Istanbuldagi bazi mahallalar haqida fikr bergan. Misol uchun hikoyada “Beyog‘lu ayollari” degan ibora uchraydi. Bu “Beyog‘lu ayollari” iborasi Beyog‘lu mahallasida yashaydigan yomon ayollarning mahallasi ekanligini haqida ma’lumot beradi. Misol tariqasida hikoyadan bir parcha “Esasen adı zenperestliklerden çok kaçardı ve Beyoğlu kadınlarından hiç hoşlanmadı”.(P.Safo Istanbul hikoylari) Shu bilan birgalikta asarning ko‘pgina hikoyalarida “Fatih” va “Harbiya” mahallalari ham uchraydi. “Fatih” mahallasi kambag‘al insonlar yashaydigan joyni bildirsa, “Harbiya” mahallasi boy insonlar yashaydigan joyni bildiradi. Asarda ko‘pgina shunga o‘xshash joy nomlari ya’ni makonlar orqali hikoyani tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Payomi Safoning ko‘plab asarlarida bunga o‘xshah yer-joynomlariga duch kelamiz. Ta’kidlab o‘tkanimizdek bu kabi joy nomlari aynan Payomi Safoning “Ayol, yotoq, mozor nomli hikyosida duch kelamiz. Hikoyada Istanbulning eng mashxur va zodagon aholi yashaydigan joy deb ham tariflasa bo‘ladigan Nishantashi, Bebek, Beyog‘lu kabi yer joy nomlari uchraydi.

Peyami Safoning “Istanbul hikoyalari” nomli asarida ko‘p davrlar mavjud. Biroq yozuvchi o‘zining mashaqqatli hayoti, boshidan kechirgan iztiroblari, dardlari, dardlari,

ota sog‘inchlari kabi narsalarni butun umri davomida ko‘rib chiqqani bois, muallif asosan realistik va ijtimoiy mavzudagi asarlar yaratgan. Shuning uchun ham Peyami Safo hikoya va romanlarida asosan o‘z davrini aks ettirgan. Jumladan, “g‘aroyib kechadan so‘ng” qissasida hikoya qilish vaqti haqida ma’lumot berilmaydi, balki muallif hikoyani shunday qilib qo‘yganki, o‘quvchi hikoya qilish vaqtini o‘zi topishini istaydi. “Hamma joyda shirin, mast qiluvchi lavanta va ayolning hushbo‘y hidi.<sup>1</sup> "Men sultonman". "Yovvoyi tundan keyin" hikoyasidan olingan ushbu parcha bizga vaqt davri haqida ma'lumot beradi.

U “Sulton, Shazoda” kabi so‘zlarni ishlatadi va buning evaziga u kishining haqiqiy sulton ekanligiga ishonadi, shuning uchun hikoyaning Usmonlilar davridagi hikoya ekanligi ayon bo‘ladi. Uning hikoyalari odatda shu janrda yozilgan. Hikoyalar, odatda, voqeani aytib berishdan ko‘ra xabar berish uchun yozilganligi sababli, muallif vaqt iboralarini ko‘p ishlatmagan.

Peyami Safo “Istanbul qissalari” nomli asarida ish vaqti sifatida aslida bolalik davrini, ya’ni 19-asr oxiri va 20-asr boshlarini afzal ko‘rgan. Biz yuqorida aytib o‘tgan ko‘plab misollarni xuddi shu tarzda keltirishimiz mumkin. “Bayrutlik Laylo” qissasida biz keltirgan misollardan tashqari, Layloning yoshidan boshqa zamonga oid iboralarni ishlatmaydi. Ammo hikoyaning syujeti qahramonlarning jamiyatdagi o‘rni va tegishli davr haqida ma'lumot beradi.

**Xulosa:** Xulosa o‘rnida shuna aytib o‘tishimiz kerakki Payomi Safo turk adabiyotida o‘z o‘rniga ega katta yozuvchilardan biri hisoblanadi. Uning yozgan asarlari hali hanuz bugungi kunga qadar o‘rganilib kelmoqda. Safo turk adabiyotida o‘zining romanlari bilan mashxur yozuvchi hisoblanadi. Va ilmiy ish bilan shug‘ullanuvchilar ko‘proq uning romanlarini o‘rganishga harakat qilishadi. Biz esa quyidagi maqoldamizda Payami safoning romanlarini balki hikoyalari va aynan Istanbul hikoyalardagi zamon va makon tushunchalarini izohlab berishga harakat qildik. Va shu bilan birgalikta Safoning adabiyotda hali o‘rganilmagan taraflarini o‘rganishga harakat qildik. Yozuvchi har doim o‘zining bu romanlari bilan mashxur emasligini balki hikoyalarni ham uning mashxur bo‘lishida katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib berdik.

---

<sup>1</sup> Peyami Safo “Istanbul hikayeleri” altin kitaplar yayin evi, Istanbul 2018, –S.15.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxari:**

1. Salomov G‘. Tarjima nazaryasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
2. Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari (o‘quv qo‘llanma). – T.: 2014. 272 b
3. Egamova Y. Tarjimada personajlar nutqidagi jonli til elementlarini aks ettirish masalasi // Badiiy tarjima – do‘stlik quroli (Maqolalar to‘plami). – Toshkent, 2017. 33–34-betlar.
4. Kazancı A. Üvey anne. – İstanbul: Ensar Neşriyet, 2017. 232 b.
5. Qozonchi A L. Eng sara asarlari. – Toshkent: Book Media Nashr, 2020. 592 b.
6. Safo P. İstanbul hikoyalari. – İstanbul: Ötüken nashriyot uyi, 2018. 203
7. Safa, Peyami, Hikâyeler (hzi: Halil Açığöz), İstanbul: Ötüken Neşriyat. 1980
8. Tekin, Mehmet, Romancı Yönüyle Peyami Safa, İstanbul: Ötüken Neşriyat. 1999